



FRAZELOGIK BIRLIKLAR MILLIY MENTALITET SIFATIDA

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

**Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti**

Annotatsiya: Frazelogizmlar tarkibida milliy- madaniy tus berib turuvchi qismlar mavjud bo‘lib, ular xalqning asriy turmush tarzi, tarixiy tajribasi natijalari xavfsizlik bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ekspressiv-emotsional bo‘yoqdorlik, pessimistik fikr-mulohazalar, sheva, dialekt, uslubiyat, frazeologiya.

Annotation: Phraseologisms contain national-cultural elements, which can be the result of people's centuries-old lifestyle and historical experience.

Key words: expressive-emotional coloring, pessimistic opinions, dialect, dialect, methodology, phraseology.

Аннотация: Фразеологизмы содержат национально-культурные элементы, которые могут быть результатом многовекового образа жизни и исторического опыта людей.

Ключевые слова: экспрессивно-эмоциональная окраска, пессимистические суждения, диалект, говор, методология, фразеология.

Frazelogizmlar tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligi, maishiy ong tuzilmasini aks ettiradigan, o‘zida ijtimoiy tajribani mujassam etgan folklorning bir ko‘rinishidir¹ Frazelogik birliklar mazmunida o‘sha xalqning turmush tarzi,

¹ Botirov B.M. O‘zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent. Fan va texnologiyalar markazi. 2011. B:38



yashash holati, an'analari, urf-odatlar aks etadi. Ularni tahlil qilish, etimologiyasini o'rganish orqali o'sha millatga xos etnopsixologik xususiyatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Frazeologik birliklarning madaniy birikmasini anglash uchun ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning frazeologizmlarida qo'llangan timsollari asosini tahlil qilish muhim. Bu frazeologik birliklar milliy-madaniy talqinining muhim jihatidir. Frazeologizmlar tarkibida milliy- madaniy tus berib turuvchi qismlar mavjud bo'lib, ular xalqning asriy turmush tarzi, tarixiy tajribasi natijalari xavfsizlik bo'lishi mumkin. Millatning kundalik hayot tarzidan kelib chiqqan frazeologizmlar sirasiga otning kallasiday, otning qashqasiday birikmalarini keltirish mumkin. O'zbeklar turmush tarsi davmida otdan ko'p foydalanganligi tufayli frazeologik birliklarda ham ot timsoli keng qo'llangan. Frazemalar orasida xamir uchidan patir, yuzini yerga qaratmoq kabi faqat o'zbek millatiga xos ifodalarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, bo'zchining mokisiday, do'ppisi tor kelmoq, kovushini to'g'rilamoq kabi iboralarda aynan bo'zchi, do'ppi, kovush kabi xalq odatda, shug'ullangan mehnat turi, milliy kiyim timsollari aks etgan.

Nutqimizda ishlatilib turuvchi soyasiga ko'rpacha yozmoq iborasi, izzat-hurmat qilishni me'yordan oshirib yuborishni bildiradi². Xalqimizda azaldan dasturxon atrofida ko'rpacha solib o'tirish odati bo'lib, biror mehmon kelsa, yangi ko'rpachalar solinib, dasturxonga taklif qilinadi va bu mehmonga nisbatan hurmat belgisi hisoblanadi. Iltifotni oshirib yuborish ma'nosidagi iborada ham, o'zi qolib, hatto soyasiga ko'rpacha soldi, haddan ziyod ehtirom ko'rsatadi, mazmuni aks etadi. O'zbek xalqiga xos an'analardan kelib chiqqan holda "ko'rpacha" timsoli bu iborada ham hurmat-izzat timsoli sifatida assotsiatsiyalangan.

Yog' tushsa yalagudek - nihoyat darajada top-toza ma'nosini bildiruvchi bu iborada nega aynan yog' timsolidan, yog'ni yalab qo'yish mumkin bo'ladigan darajada toza deyish ma'nosida bu qiyosdan foydalanilgan? Bu savolga javob

².Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent. O'qituvchi, 1978. B:215.



izlashdan avval o'zbeklarga bo'la xos e'tiqodiy qarashlardan kelib chiqqan holda isrofdan qochish, tejamkorlik kabi sifatlarni eslash kerak. O'zbek xalqida "uvol bo'lmasin" deya, tovoq, qozondagi ovqat yuqini ham sidirib, yalab qo'yish odati bo'lgan. Bu kambag'allik yoki yetishmovchilik belgisi emas, balki isrofdan qo'rqish, biror tomchi va biror uvoqni ham isrof qilmaslik, ovqatning barakasi oxirgi luqmada, tomchida bo'lishi mumkinligini his qilish, shuningdek, shaytonga nasiba bermaslik mazmunini aks ettiradi.

O'zbek tilida frazeologik birikmalar qo'llanilishdagi o'ziga xos jihat sifatida N.Ulug'xo'jayev somatiz ya'ni ko'zlarning saxiylik va baxillik kabi shaxsiy xususiyatlarini ifodalashini keltiradi. Misol tariqasida doimo barcha narsadan qoniqmaslik, yetishmovchilikni his qilaveruvchi insonlarga nisbatan "ko'zi och", bunga qarama-qarshi mazmunda esa qanoatli insonlarga nisbatan "ko'zi to'q" iborasi qo'qarab³ O'zbek tilida somatik frazeologizmni tadqiq etgan A.Isayevning ta'kidlashicha, ko'zining paxtasi chiqmoq, ko'zi yorimoq, ko'zini moshdek ochmoq kabi singari frazemalar o'zbek tili frazeologik fondining o'ziga xos frazemalari bo'lib, bu frazemalarning boshqa tillarda muqobillari mavjud emas

O'zbek xalqida oq rang, asosan, o'xshatish - ezgulik, soflik, ozodalik timsoli sifatida qo'llaniladi. Oq yuvib, oq taramoq iborasida ham bolani asrab-avaylab parvarishlash oq rang bilan assotsiatsiyalanadi. Oq fотиha berdi iborasida ham duo qildi, yaxshiliklar tiladi mazmuni aks etadi. Ammo ba'zi o'rinlarda ushbu rang salbiy ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, farzandini oq qildi iborasi qarg'adi, norozi bo'ldi mazmunida ishlatiladi.

Og'zi qulog'iga yetdi iborasi juda xursand bo'lmoq ma'nosida qo'llaniladi. Xo'sh, nega aynan xursandchilikni ifoda etuvchi ibora tashqi belgilar, yuz qiyofasi asosida ifodalangan? Gap shundaki, o'zbek xalqiga xos psixologik xususiyatlar zamirida boshqa xalqlar kabi millat e'tiqodi, dini, qadriyatlari yotadi. O'zbeklar

³ Абдуллаев А. Ўзбек тилида експрессивликнинг ифодаланиши. - Тошкент: Фан, 1983. - 886



tabiatan xushmuomala, ochiq yuzli bo'lgani uchun ular yuzidan nimtabassum bo'lgan. Og'zini katta ochib qahqaha otib kulish odobsizlik, tarbiyasizlik sanalgan. O'z tabiatida og'ir-vazminlik sifatlarini shakllantirishga intilganlar. Nimtabassum qilganda og'iz holati birmuncha yoyiladi xolos. O'zbeklar uchun og'izni haddan tashqari yoyib kulish noodatiy holat bo'lganidan, "shunchalik xursand bo'ldiki, hatto og'zi keng yoyilib, qulog'iga yetay deb qoldi" ma'nosida ushbu iborani belgilagan. Agar o'zbeklar uchun og'izni keng yoyib kulish, qahqaha otish odatiy holat bo'lganidan, xalq vakillari orasida bu holat alohida o'xshatish sifatida keltirilmagan bo'lardi.

Frazeologiyada u yoki bu xalqning milliy madaniyati millatning mental xususiyatlariga xos xususiyatlar tizimi asosida namoyon bo'lar ekan, o'zbek iboralari orasida ham osmonga qarab yotish, pashsha qo'rish kabi frazemalar bekorchilikni ifoda etish ma'nosida qo'llaniladi. Bu o'zbek qarashlaridagi muhim bo'lmagan ishlar bilan nida vaqtni behuda o'tkazuvchi lozimligini aks ettiruvchi stereotiplar, vaqtning muhimligini ifodalovchi qadriyatlarga asoslanadi.

Dialektal frazlarni tadqiq qilar ekanmiz xalq orasida ularning kelib chiqish tarixi bo'yicha bir qancha rivoyatlarning mavjudligiga guvoh bo'ldik. Bilamizki o'zbek xalqi necha ming yillik tarixga ega xalqdir. Tarixiy manbalarga nazar tashlasak o'zbek xalqining 92 ta urug' mavjud bo'lgan. Zakiy Validiy shunday deydi – "Boshqurtlar ichida shunday bo'v bor". O'n ikki bo'vli boshqurt - deydilar. O'zbeklarda 92 qabilaviy bir "Nasibnoma" bordir". Ular o'z ichiga ko'ra bir neshta guruhlariga bo'linib ketadi. Shularning Qo'ng'iro't qabilasiga kiruvchi Oyinlilar guruhida "Turkman" urug'ini uchratdik. O'g'uz lahjasi vakillari bo'lmish turkman xalqida hozirgi kunda ham urug'lar mavjud. Ular ham bir neshta guruhga bo'linadi. Eng kattasi "Ata" deya nomlanadi. Ammo otaning etnik nomi qanday paydo bo'lgan? degan savol vujudga keladi. Bu atama buyuk turkiy (turkman) tasavvuf shoiri, buyuk din arbobi Xoja Ahmet Yasaviy (1103 - 1166) va o'z davri madaniyati bilan bog'liq. Ahmet Yasaviy Turkiston shahri yaqinidagi Yasa



qishlog'ida tug'ilgan (darvoqe, chovdurlar tarkibidagi Yasa qabilasining nomi shu qishloq nomidan bo'lgan bo'lishi mumkin). Tasavvufda katta obro' - e'tibor qozonganidan so'ng Xoja Ahmad qabilasi Yasa nomi bilan ham mashhur bo'ldi. Turkiy tilda ota so'zidan keyin qabila boshliqlarining nomi keladi. S.M. Demidov to'g'ri ta'kidlaganidek, din va madaniyat rivojlanishi natijasida turkiy so'zlarga hurmat kuchayib, shayx, pir kabi tushunarsiz arabcha so'zlar o'rniga turkiy ota so'zi paydo bo'ldi. Shunday shaxslardan biri XVI asrning ikkinchi choragida Bolqon turkmanlari orasiga kirib, so'fiylikni targ'ib qilgan Hasan ota yoki Ahsan Shayxdir. Ko'chmanchi turkmanlar uni Go'zliata ("ko'r ota", "ko'rinib turgan") deb atashgan. Uning atrofida to'plangan turli qabilalar - qabilalar va elatlar Go'zliota erlari deb atalgan (Go'zliata qabri Shagadamdan (Krasnovodsk) 150 km shimoli-sharqda, Qoraqum cho'lida joylashgan). O'limidan keyin uzoq vaqt davomida uning fuqarolari Go'zliata deb atalgan va XVIII asr oxiridan keyin ular faqat Ota deb atalgan. Maqtumquli bu qabilani faqat Go'zliota deb ataydi [Ataniyazov, 1994:52]. Go'zli ota haqida xalq orasida shunday afsona bor. "Go'zliota yurtlarni kezib yurar ekan, qozoq elatlari yashaydigan joylardan o'tadi. Shu payt bir ayol ayron chayib turgan ekan. Bir piyola ayron so'raydi. Uni ichib bo'lgach "çeşmaña bereket bersin" deya u ayolni duo qiladi. Go'zliota yo'lida davom etarkan, ayron ichgan ayolning ayroni hech qachon tugamaydigan, qancha chaysa shuncha ko'payar ekan. Bu xabarni eshitgan o'sha yurtning podshosi uni o'zining qiziga uylantiradi. Undan uchda farzand dunyoga keladi. Nurota, Omar ota va Yibiqota kabi. Kunlarning birida Go'zliota kasal bo'lib qoladi. Farzandlaridan suv berishini so'raydi. Yibiqota suv ham bermay yonidan o'tib, miyig'ida kulib ketadi. Omarota bo'lsa suvni yoniga qo'yib ketadi. Nurota bo'lsa o'rnidan turg'izib suvni beradi. Shunda ularni duo qiladi, Nurotaga "Martabang baland bo'lsin" deydi, Omar otaga "*Çöpden çarig köp bölgaysiñ, biraq agziñ birikmesin*" degan bo'lsa, Yibiqotaga hesh nima demagan ekan. Nurotadan Magmurota, Ahmedata urug'lari, Omar otadan Ho'shgeldi, Dawletgeldi urug'lari, Yibiqotadan



bo'lsa Yovmut urug'i vujudga kelgan bo'lib, turkman urug'larining "shejere" haqidagi kitobidan ma'lumotga ega bo'ldik. Demak, ajdodlar qabilasining nomi va uning uch bo'limi nomidan keyingi nurota, omarata, ybig'ata, xoja, shayx, pir so'zlari bilan birga "muqaddas" ma'nosida qo'llanilgan turkiy so'zdan olingan.

Jumladan, bizga Odamatodan meros bo'lgan sevish, sevilish har bir inson boshida bor. Ammo ba'zi bir shunday kimsalar bor sevmagan insonga suykaladigan. Tilimizda bundaylarga nisbatan "*suymagangasuykalma*" iborasini qo'llashadi. O'g'uz lahjasi vakilari tilida bu iboraning "*sevmaýana sü:kanmma*", "*söymediga süykenma*" tarzida, qozoqlarda bo'lsa "cuymegenge suykenbe", qipchoq lahja vakillari tilida "*суймегенге суйкенбе суйгениң болар сууқабақ*" tarzida qo'llanilishining guvohi bo'ldik. Qipchoq lahja vakillarida bunday nomlanishi bo'yicha xalq orasida shunday rivoyat bor ekan. "Qadimda G'o'dalaq ismli bir kishi bo'lgan ekan, u Ko'shkenbay ismli bir insonga ocharchilik vaqti qarz bergan ekan. Qarzini so'rab uyiga kelganida uning Aysanem ismli qizini yoqtirib qoladi. Qizni Awez ismli bir yigit ham yaxshi ko'radi, qizni ham bu yigitda ko'ngli bo'ladi. Lekin yigitni hech kimi yo'q, nochor bo'ladi. Ko'shkenbay qarzdand qutilish uchun qizini G'o'dalaqqa berishga rozi bo'ladi. Erining bu ishidan xabar topgan Parshagül qizni o'zini sevgani bilan bu yerlardan qochib ketishiga, birga bo'lishiga yordam beradi va qizning o'rniga suý қабақ qo'yib ketadi" Ota bobolarimiz qadimda "*суу қабақ*"lardan ya'ni suv idish sifatida foydalanganlar. Suv qabaq o'zi asli o'simlik bo'lib, uning shakli huddi ayollarning qaddi-qomatiga o'xshagani uchun Parshagül qizning o'rniga suw qabaqti qo'yib ketar ekan. Shundan keyin ushbu "*суймегенге суйкенбе, суйгениң болар сууқабақ*" iborasi xalq orasida qo'llanilar ekan.

Xullas, o'zbek frazelogik birliklari o'z negizida shu xalqqa xos bo'lgan milliy madaniyat belgilari, milliy timsollarni aks ettiradi. Frazelozizmlarning millat ruhiyati, turmush tarzini bekam-u ko'st aks ettirishini unda turmushda qo'llaniladigan so'zlardan foydalanilganida ham ko'rish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев. Ш . Ўзбек фразеологиэсининг баъзи масалалари Фил .фан док ...диссер. -Т. Б :362.
2. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. –Л., 1928. –Б:60-61.
3. Раҳматуллаев.Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол.фанлари номз...диссер. -М. 1952.Б: 55.
4. Турсунов. У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка. Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, выпуск 106, -Самарканд, 1961. Б:106.
5. Ibragimova Z. Khazirbayeva M DIALECT OF TURKISH NATION INKARAKALPAKISTAN. ASIAN JOURNAL OF RESERCH IN SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES.2022. B: 92-95.
6. Ibragimova Z.Xazirbayeva M. Qoraqalpog‘ istondagi turkiy xalqlar shevalarida frazeologizmlar. “O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV” .Toshkent-2022. B:189-193.